

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA ORNITONIMLARNING  
LINGVISTIK JIHATDAN TADQIQ ETILISHI  
LINGUISTIC STUDY OF ORNITHONYMS IN UZBEK AND ENGLISH  
LANGUAGES**

**ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОРНИТОНИМОВ В  
УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Maxmudova Nargiza Ravshanovna**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

[nargizam148@gmail.com](mailto:nargizam148@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar lingvistik tadqiq etilgan hamda ornitonimlarni o‘rganishdagi turlicha yondashuvlar qiyosiy aspektda tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ornitonim, zoonim, leksema, qush nomlari, zoologik nomenklatura

**Abstract.** In this article, ornithonyms in Uzbek and English languages are linguistically researched and different approaches to the study of ornithonyms are analyzed in a comparative aspect.

**Key words:** ornithonym, zoonym, lexeme, bird names, zoological nomenclature

**Аннотация.** В данной статье лингвистически исследуются орнитонимы в узбекском и английском языках и в сравнительном аспекте анализируются различные подходы к изучению орнитонимов.

**Ключевые слова:** орнитоним, зооним, лексема, названия птиц, зоологическая номенклатура.

Hozirgi kunda yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal rivojlanishi har bir sohaga yuksak e‘tibor qaratishni talab etmoqda, shu jumladan, tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Bunday yangilanishlar natijasida tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar va neologizmlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon esa o‘z navbatida soha mutaxassislarining o‘z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini, ularning mazmun-mohiyati haqida to‘laqonli bilimga ega bo‘lishlarini taqozo etmoqda. Shu bilan birga turli tizimli tillarda

muayyan leksema, frazeologik birliklarning shakllanishi, rivoji va taraqqiy etishi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish maqsadida mutaxassislar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, ornitonimlarning tilda frazeologik birlik, yoki semema shaklini tadqiq etish, tilda foydalanish ahamiyatini o‘rganish dolzarbligini yo‘qotmagan va ayni paytda o‘z yechimini kutmoqda. Tilda olimlar hayvonlar nomlariga bog‘liq bo‘lgan zoonim tushunchasini turlicha talqin etganlar. Shu ma’nodan **ornitonim** tushunchasi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham birdek o‘ziga jalb qilmoqda va dolzarb masalalardan biri sifatida ilmiy jamoatchilik e’tibor markazida bo‘lmoqda.

Ornitologiya (yun.*ornithos*-qush va ...logiya) aslida umurtqalilar zoologiyasining qushlarni va ularga tegishli bo‘lgan barcha narsalarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limidir. Ornitologiya qushlarning ko‘rinishi va estetik jozibasi bilan bog‘liq bo‘lgan fanlardan o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Ornitologlar nazariyalarga tayangan holda o‘z ilmiy faraz yoki bashoratlarini sinab ko‘rish uchun qushlardan model sifatida foydalanishini aniqlaganlar.

Til tarkibi, tilning so‘z boyligi jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarga uchraydi. Bunda qushlarga tegishli bo‘lgan barcha ifodalarni uslubiy o‘rganiladi. Qushlarning tashqi ko‘rinishi, yashash tarzi, sayrashi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib turli til birliklari qo‘llaniladi. Xususan, tadqiqotda tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan qush nomlari qatnashgan turli matnlar va frazeologik birliklar o‘rganilgan.

J.G.Simpson zoologik nomenklatura–bu “har qanday aniqlangan organizmlar guruhining har biri uchun o‘ziga xos nomlarni qo‘llash zoologik tasnif” deya e’tirof etadi. Zoologik nomenklaturasining aksariyati uchun asos – bu Linney ierarxiyasi bo‘lib, u deyarli to‘liq shaklga 1758 yilda olim tomonidan "tabiat tizimi" nomida ishlab chiqilgan. Zoologik tasniflar uchun universal hisoblangan ushbu Linney ierarxiyasi quyidagicha ko‘rinadi: qirollik, tur, sinf, tartib, oila, jinsi, ko‘rinishi kabi. Qushlarning zamonaviy taksonomiyasi ushbu tizimga asoslangan bo‘lib, K.Linney

tomonidan yaratilgan tasnif asosida asosiy taksonomik birliklarning kichik guruhlari-ichki turlarini ajratish mumkin. Bu holatda bir nechta turlar birlashib katta turni tashkil qiladi, avlodlar oilani tashkil qiladi (subfamilalar bo‘lishi mumkin), oilalar otryadga birlashtirilgan, otryadlar sinfni tashkil qiladi. Qushlar sinfi turini tashkil etadi. Qushlar ustida olib borilgan tadqiqotlar biologiyada asosiy tushunchalarni, shu jumladan, evolyusiya, xulq-atvor va ekologiya, turlarning ta’rifi, turlanish jarayoni, instinkt, o‘rganish, ekologik bo‘shliqlar, gildiyalar, orol biogeografiyasi, filogeografiya va tabiatni muhofaza qilish kabi asosiy tushunchalarni ishlab chiqishga yordam bergan.

Qushlarning nomlarini birlashtiruvchi semantik guruhi tarixan nisbatan ochiq tuzilishga ega bo‘lib, bunda atamalar tilda yo‘q bo‘lib ketishi yoki yangilari bilan almashtirilishi mumkin. Qushlar haqidagi dastlabki adabiyotlardagi bitiklar ilmiy jihatdan emas, balki badiiy tomondan tasvirlangan. Lekin ornitologiyaning maqsadi qushlarni ilmiy o‘rganish sanaladi. Qushlar terminologiyasining mavzusi ko‘plab mualliflar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularning turli tillarda o‘ziga xos nomlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, qushlarning nomlanishini semantik, etimologik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlari tadqiqi bo‘yicha izlanishlar mavjud.

Badiiy matnda qushlar nomi bilan bog‘liq tasviriy vositalar ham ko‘p uchraydi. Ayniqsa, nazmiy asarlarda metafora, metonimiya va qushlar nomi bilan bog‘langan tasviriy vositalar, sinekdoxalarga misollar topish mumkin. Metonimiya nomdoshlanuvchi va nomdoshlovchi narsa o‘rtasidagi aloqadorlikka xosdir.

Qush nomlarining lingvistik tadqiqi uchun quyidagi ta’rif juda ahamiyatlidir:

<i>English</i>	<i>Uzbek</i>
<i>A Bird is <u>animal covered in feathers</u>, with two <u>wings for flying</u> and <u>hard pointed mouth called a beak</u>.</i>	<i>Qush- patlar bilan qoplangan hayvon bo‘lib, uchish uchun ikkita qanoti va qattiq uchli og‘iz tumshug‘li jonzotdir.</i>
<i>Birds <u>build nests</u>, in which <u>female birds lay eggs</u>. “Birds</i>	<i>Qushlar uya quradilar, ularda urg‘ochi qushlar tuxum qo‘yadilar.</i>

<p><i>are an essential part of nature; some birds fly, some don't, some have long beaks, others not.</i></p>	<p><i>Qushlar tabiatning ajralmas qismidir; ba'zi qushlar uchadi, ba'zilari uchmaydi, ba'zilarining tumshuqlari uzun, boshqalari esa yo'q.</i></p>
--	--

Mazkur ta'rif qushlar nomlarini o'rganishda ularning shakli ham qaysidir ma'noda ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дж.Г.Симпсон. Принципы таксономии животных [Principles of taxonomy of animals]. Перевод с английского языка. Москва: 2006. - 293 p.(11)
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/The\\_Tale\\_of\\_Jemima\\_Puddle-Duck](https://en.wikipedia.org/wiki/The_Tale_of_Jemima_Puddle-Duck)
3. Пол Гэллик: Белая гусыняThe Snow. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка / В. И. Даль. — Москва : Русский язык, 1989. — Т. I. — 699 с.(244)
5. Maxmudova, N. (2021). LEXICAL-SEMANTIC GROUP OF ORNITHONYMS IN LANGUAGE AND THEIR USE. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(5), 107-116.
6. Maxmudova, N. (2021). BIRD NAMES REALLY MATTER: FEATURES OF ORNITHONYMES IN LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (5), 116-118